UO‘K 159.9:316.334.55

MAHALLA INSTITUTLARI ORQALI AHOLIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Djumanazarov Yokubjon Turg‘unbayevich,
Namangan davlat universiteti
“Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maqolada mahalla institutlari orqali aholiga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik, huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilingan, *mahallaning aholiga eng yaqin ijtimoiy tuzilma sifatidagi imkoniyatlari, fuqarolarning psixologik muammolarini erta aniqlash, psixologik profilaktika ishlarini olib borish va malakali mutaxassisga yo‘naltirishdagi o‘rni yoritilgan. Psixologik xizmatni tashkil etishda ixtiyoriylik, maxfiylik, kasbiy vakolatlilik, inson huquqlariga hurmat, shaxsga yo‘naltirilganlik va zarar yetkazmaslik tamoyillarining ustuvorligi asoslangan. Tadqiqot natijasida mahallada psixologik xizmatni tashkil etish aholining ruhiy salomatligini mustahkamlash, oilaviy nizolar va tang vaziyatlarning oldini olish hamda psixologik yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, psixologik xizmat, psixologik yordam, ruhiy salomatlik, psixologik profilaktika, ijtimoiy xodim, oila, maxfiylik, kasbiy vakolatlilik, idoralararo hamkorlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ НАСЕЛЕНИЮ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУТЫ МАХАЛЛИ

В статье проанализированы социально-психологические, правовые и организационные основы оказания психологической помощи населению через институты махалли. Раскрыты возможности махалли как наиболее близкой к населению социальной структуры, её роль в раннем выявлении психологических проблем граждан, проведении психопрофилактической работы и направлении лиц, нуждающихся в помощи, к квалифицированным специалистам. Обоснована приоритетность принципов добровольности, конфиденциальности, профессиональной компетентности, уважения прав человека, личностно ориентированного подхода и непричинения вреда при организации психологической службы. Результаты исследования показали, что организация психологической службы в махалле способствует укреплению психического здоровья населения, предупреждению семейных конфликтов и кризисных ситуаций, а также расширению доступности психологической помощи.

Ключевые слова: *махалля, психологическая служба, психологическая помощь, психическое здоровье, профилактика, социальный работник, семья, конфиденциальность, профессиональная компетентность, межведомственное сотрудничество.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING PSYCHOLOGICAL SERVICES THROUGH MAHALLA INSTITUTIONS

The article analyzes the socio-psychological, legal, and organizational foundations of providing psychological services to the population through mahalla institutions. It highlights the potential of the mahalla as the social structure closest to the community, as well as its role in the early identification of individuals’ psychological problems, the implementation of preventive psychological measures, and referrals to qualified specialists. The priority of the principles of voluntary participation, confidentiality, professional competence, respect for human rights, a person-centered approach, and non-maleficence in organizing psychological services is substantiated. The findings indicate that organizing psychological services within mahallas contributes to strengthening the population’s mental health, preventing family conflicts and crisis situations, and improving access to psychological support.

Keywords: *mahalla, psychological service, psychological support, mental health, prevention, social worker, family, confidentiality, professional competence, interagency cooperation.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi, oilaviy munosabatlarning murakkablashuvi, axborot oqimining ortishi, bandlik bilan bog‘liq muammolar hamda kundalik hayotdagi ruhiy zo‘riqishlar aholining psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda insonning ruhiy salomatligini saqlash faqat tibbiyot yoki psixologiya sohasi doirasidagi

vazifa bo‘lib qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, oilalar farovonligi va sog‘lom avlodni tarbiyalash bilan bog‘liq kompleks masalaga aylanmoqda.

Psixologik muammolar aksariyat hollarda dastlab kundalik hayotdagi hissiy zo‘riqish, muloqotdagi qiyinchilik, o‘ziga ishonchsizlik, oilaviy kelishmovchilik yoki ijtimoiy moslashuvning susayishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar o‘z vaqtida aniqlanmasa va zarur yordam ko‘rsatilmasa, ular uzoq davom etuvchi xavotir, tushkunlik, oilaviy nizolar, ijtimoiy yakkalanish, turli destruktiv xatti-harakatlar yoki tang vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli psixologik xizmatning aholiga yaqin, tushunarli va ishonchli shakllarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mahalla tizimi O‘zbekiston jamiyatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zaro yordam, hamjihatlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash an’analarini mujassam etuvchi noyob institut hisoblanadi. Mahalla aholining kundalik hayotiga yaqinligi, oilalarning turmush sharoiti va ijtimoiy ehtiyojlari haqida dastlabki ma’lumotga ega bo‘lishi bilan boshqa tuzilmalardan ajralib turadi. Ushbu imkoniyatlardan aholining psixologik farovonligini ta’minlashda oqilona foydalanish mahallani professional psixologik xizmatlar bilan bog‘lovchi muhim ijtimoiy bo‘g‘inga aylantirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ - 989-sonli “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunida psixologik yordamning huquqiy asoslari, turlari, shakllari va uni ko‘rsatishga vakolatli shaxslarning majburiyatlari belgilangan. Qonunda psixologik yordam tang vaziyatlarning oldini olish, shaxslararo munosabatlar va ruhiy salomatlikni yaxshilash, shaxsni rivojlantirish hamda uning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida izohlangan [1]. Mazkur huquqiy asos psixologik xizmatni aholining yashash hududiga yaqinlashtirish bilan birga, yordam ko‘rsatishda qonuniylik, ixtiyoriylik, kasbiy mahorat va maxfiylik talablariga qat’iy rioya etishni taqozo qiladi.

Tadqiqotning maqsadi mahalla institutlari orqali aholiga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini aniqlash, mavjud tashkiliy resurslarni tahlil qilish va professional yordamning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, umumlashtirish hamda psixologik xizmat amaliyotiga doir ilmiy yondashuvlarni o‘zaro taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Muammoni yoritishda shaxsning psixologik holatini uning oilaviy va ijtimoiy muhiti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganuvchi ekologik yondashuvga, psixologik muammolarning oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuvga hamda inson manfaatlari va huquqlarini ustuvor deb biluvchi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga tayanildi.

Adabiyotlar tahlili. U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, insonning psixologik rivojlanishi va xulq-atvori faqat uning individual xususiyatlari bilan belgilanmaydi. Oila, mahalla, ta’lim muassasasi, mehnat jamoasi va keng ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlar ham insonning ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [2]. Mazkur nazariya mahallada psixologik xizmatni tashkil etishda fuqaroning muammosini uni o‘rab turgan ijtimoiy munosabatlardan ajratmasdan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

J. Kaplanning profilaktik psixologiyaga doir qarashlarida ruhiy va psixologik muammolarni ular chuqurlashganidan keyin bartaraf etish bilan cheklanmasdan, muammoning yuzaga kelish sabablarini oldindan aniqlash zarurligi ta’kidlanadi [3]. Shundan kelib chiqib, mahalla doirasida amalga oshiriladigan psixologik xizmat aholining psixologik bilimlarini oshirish, xavf omillarini erta aniqlash, tang vaziyatdagi shaxsni o‘z vaqtida professional mutaxassisga yo‘naltirish va xizmatning davomiyligini ta’minlashga qaratilishi lozim.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ruhiy salomatlik xizmatlarini inson yashaydigan ijtimoiy muhitga yaqinlashtirish, ularni shaxs manfaatlari va huquqlariga asoslangan holda tashkil etishni tavsiya qiladi [4]. Bunday yondashuv psixologik yordamdan foydalanishdagi hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy to‘siqlarni kamaytiradi. Insonning odatiy ijtimoiy muhitidan ajralmagan holda yordam olishi uning oila va jamiyatdagi faoliyatini saqlashga, mavjud ijtimoiy resurslardan foydalanishga hamda mutaxassis bilan barqaror munosabat o‘rnatishga ko‘maklashadi.

Natijalar va muhokama. Mahalla institutlari orqali aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish masalasi, eng avvalo, mahallaning vazifasi va professional psixolog faoliyati o‘rtasidagi chegarani to‘g‘ri belgilashni talab qiladi. Mahalla aholining muammolarini o‘rganishi, ehtiyojmand shaxslarni aniqlashi va ularga tegishli xizmatlar haqida axborot berishi mumkin. Biroq mahalla raisi, ijtimoiy xodim, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi yoki boshqa vakilning fuqaro bilan muloqot qilishi professional psixologik maslahat o‘rnini bosa olmaydi.

Psixologik yordam ko‘rsatish uchun maxsus bilim, amaliy tayyorgarlik, kasbiy malaka va axloqiy mas’uliyat talab etiladi. O‘RQ-989-sonli Qonunga ko‘ra, psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga

ega shaxslar psixologik yordam ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega [1]. Shuning uchun mahalla vakillarining vazifasi psixologik tashxis qo‘yish yoki murakkab psixologik ta’sir usullarini qo‘llashdan emas, balki muammoni sezish, fuqaroni tinglash, zarur axborot bilan ta’minlash va uning roziligi asosida malakali mutaxassisga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Aholining mahalla tizimiga nisbatan ishonchi psixologik xizmatni tashkil etish uchun muhim ijtimoiy resursdir. Fuqaro ko‘pincha o‘z muammosini uzoqda joylashgan tashkilotga yoki notanish mutaxassisga bildirishdan ko‘ra, yashash hududidagi ishonchli va tanish tuzilma orqali yordam olishni ma’qul ko‘rishi mumkin. Biroq ushbu yaqinlik ayrim xavflarni ham yuzaga keltiradi. Kichik hududda odamlar bir-birini yaxshi tanishi sababli shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, murojaat qilgan fuqaro haqida turli taxminlarning tarqalishi yoki uning ijtimoiy tamg‘alanishi ehtimoli mavjud.

Psixologik xizmatning mahallaga yaqinlashtirilishi maxfiylik talabi zaiflashtirilishini anglatmasligi kerak. Aksincha, aholining bir-biri bilan yaqin aloqada yashashi maxfiylikni yanada qat’iy ta’minlashni talab qiladi. Psixologik yordam so‘rab murojaat qilgan shaxsning ismi, oilaviy vaziyati, psixologik holati va suhbat mazmuni mahalla yig‘ilishi yoki boshqa jamoaviy muhokamalarda oshkor qilinmasligi lozim. Faqat inson hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy xavf mavjud bo‘lgan yoki qonunchilikda nazarda tutilgan vaziyatlarda tegishli mutaxassis va tashkilotlarga zarur axborot berilishi mumkin.

Mahallada psixologik xizmatni samarali tashkil etish aholining psixologik savodxonligini oshirishdan boshlanishi zarur. Ruhiy salomatlik haqida yetarli bilimga ega bo‘lmagan inson o‘zida yuz berayotgan psixologik o‘zgarishlarni kasallik, shaxsiy zaiflik yoki irodasizlik sifatida baholashi mumkin. Natijada u muammoni yashiradi, yordam so‘rashdan tortinadi yoki ilmiy asoslanmagan usullarga murojaat qiladi. Mahallalarda psixologik ma’rifat tadbirlarini tashkil qilish insonlarga kundalik stress, hissiy zo‘riqish, xavotir, tushkunlik, oilaviy kelishmovchilik va tang vaziyatlarning belgilarini anglashga yordam beradi.

Psixologik ma’rifat ishlari umumiy va mavhum targ‘ibot bilan chegaralanmasligi kerak. Ular aholining yoshi, oilaviy holati, kasbi va hayotiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Yosh oilalar uchun er-xotin munosabatlari va nizolarni konstruktiv hal etish, ota-onalar uchun bola bilan sog‘lom muloqot o‘rnatish, yoshlar uchun kasbiy tanlov, hissiy barqarorlik va raqamli muhitdagi xavflar, keksalar uchun yolg‘izlikning oldini olish va ijtimoiy faollikni saqlash masalalariga e’tibor qaratilishi mumkin. Bunday ishlar profilaktik xususiyatga ega bo‘lib, aholining muammo og‘irlashmasdan turib yordam so‘rash madaniyatini shakllantiradi.

Mahalladagi psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlaridan biri oilalarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Oiladagi nizolar ko‘pincha faqat er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchilikdan iborat bo‘lmay, iqtisodiy qiyinchilik, ishsizlik, migratsiya, avlodlar o‘rtasidagi qarashlar farqi, ota-onalik mas’uliyati va kommunikativ ko‘nikmalarning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli oilaviy muammoni faqat axloqiy nasihat yoki tomonlarni yarashtirish orqali hal etishga urinish yetarli natija bermaydi. Professional psixolog muammoning emotsional va kommunikativ sabablarini aniqlashi, oila a’zolariga o‘z hissiyotlarini konstruktiv ifodalash, bir-birini tinglash va o‘zaro maqbul qaror topishda ko‘maklashishi zarur.

Mahalla tizimi xotin-qizlar, bolalar, yoshlar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning o‘ziga xos psixologik ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatiga ega. Biroq ehtiyojni aniqlash insonning shaxsiy hayotiga asossiz aralashish yoki uni doimiy nazorat qilish shakliga aylanmasligi kerak. Psixologik yordam fuqaroning qadr-qimmati, mustaqil qaror qabul qilish huquqi va shaxsiy chegaralarini hurmat qilish asosida ko‘rsatilishi lozim.

Zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda ushbu talab alohida ahamiyatga ega. Bunday vaziyatda jabrlanuvchini oilani saqlash yoki nizoni oshkor qilmaslikka undash uning xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin. Psixologik yordam, avvalo, shaxsning jismoniy va ruhiy xavfsizligini ta’minlash, uning holatini ayblovsiz qabul qilish va huquqiy hamda ijtimoiy xizmatlarga murojaat qilish imkoniyatini tushuntirishga yo‘naltirilishi kerak. Psixolog, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodimning hamkorligi bu jarayonda qonunchilik va kasbiy vakolatlar doirasida amalga oshirilishi zarur.

O‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlar, o‘ziga yoki boshqalarga zarar yetkazish xavfi, kuchli psixologik izdan chiqish yoki voqelikni idrok etishning jiddiy buzilishi kuzatilgan holatlar mahalla darajasidagi oddiy maslahat bilan cheklanmasligi kerak. Bunday vaziyatda fuqaro shoshilinch tibbiy va ruhiy salomatlik xizmatlariga yo‘naltiriladi. Mahalla vakillari va ijtimoiy xodimlarga xavf belgilarini tanish hamda favqulodda vaziyatda qanday harakat qilish bo‘yicha aniq yo‘riqnomalar berilishi muhim.

Psixologik xizmatning samaradorligi idoralararo hamkorlikning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Fuqaroning psixologik muammosi ko‘pincha ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, pedagogik yoki huquqiy omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ishsizlikdan kelib chiqqan ruhiy zo‘riqishni faqat psixologik suhbat orqali to‘liq bartaraf etib bo‘lmaydi. Bunday holatda bandlik, kasbga tayyorlash yoki moddiy ko‘mak xizmatlari

bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Bolaning xulq-atvoridagi o‘zgarish oilaviy nizolar, maktabdagi moslashuv yoki sog‘liq muammosi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun psixolog, maktab pedagogi, ota-ona, oilaviy shifokor va ijtimoiy xodim hamkorligi bolaning manfaatlari asosida tashkil etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli Farmoni asosida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi aholining ehtiyojlarini yashash hududida o‘rganish uchun muhim institutsional imkoniyat yaratdi [5]. Mazkur tizim orqali psixologik muammosi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘langan fuqarolarga kompleks yordam ko‘rsatish imkoniyati kengayadi. Bunda psixologik, ijtimoiy, tibbiy va huquqiy yordam bir-biridan ajratilgan xizmatlar sifatida emas, insonning yaxlit ehtiyojiga javob beruvchi o‘zaro bog‘liq faoliyat sifatida qaralishi kerak.

Mahalla raisi psixologik xizmat uchun zarur tashkiliy sharoit yaratishi va tegishli tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishi mumkin. Ijtimoiy xodim fuqaroning ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlaydi, mavjud xizmatlar haqida ma’lumot beradi va murojaat jarayoniga ko‘maklashadi. Xotin-qizlar faoli oilaviy va gender muammolari bilan murojaat qilgan shaxslar uchun ishonchli aloqa kanalini yaratadi. Yoshlar yetakchisi yoshlarning psixologik ehtiyojlarini aniqlash, ularni foydali ijtimoiy faoliyatga jalb qilish va zarur hollarda mutaxassisga yo‘naltirishda ishtirok etadi. Oilaviy shifokor psixologik alomatlar bilan bog‘liq somatik holatlarni baholaydi. Professional psixolog esa psixologik baholash, maslahat, profilaktika va korreksion faoliyatni kasbiy me’yorlar asosida amalga oshiradi.

Ushbu hamkorlikda vazifalarning aniq chegaralanishi muhim. Mahalla xodimining fuqaroni tinglashi, unga hissiy ko‘mak berishi va xizmatlar haqida ma’lumot taqdim etishi mumkin, ammo bu harakat professional psixologik maslahat sifatida talqin qilinmasligi kerak. Aks holda, yetarli bilim va tayyorgarlikka ega bo‘lmagan shaxs tomonidan berilgan tavsiya muammoni chuqurlashtirishi, fuqaroning noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga yoki professional yordamga kech murojaat qilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mahalla vakillarining psixologik savodxonligini oshirish ular zimmasiga psixolog vazifasini yuklashni anglatmaydi. Maxsus o‘quv mashg‘ulotlari ularga stress va tang vaziyat belgilarini aniqlash, fuqaroni ayblovsiz tinglash, muloqotda axloqiy chegaralarni saqlash, maxfiylikka rioya qilish va murakkab holatlarni tegishli mutaxassisga yo‘naltirish ko‘nikmalarini berishi kerak. Bunday tayyorgarlik mahalla xodimining kasbiy vakolatini almashtirmaydi, balki xizmatlar o‘rtasidagi bog‘lovchi faoliyatini takomillashtiradi.

Psixologik maslahat o‘tkaziladigan joyning sharoiti ham xizmat sifatiga ta’sir qiladi. Mahalla binosida suhbatning maxfiyligini ta’minlaydigan alohida xona bo‘lmasa, fuqaro o‘z muammosi haqida ochiq gapira olmaydi. Shu sababli suhbat uchun begona shaxslar kirmaydigan, ovoz tashqariga eshitilmaydigan va murojaatchining xavfsizligini ta’minlaydigan joy ajratilishi zarur. Psixologning qabul vaqti aholiga ma’lum qilinishi mumkin, ammo murojaatchilar ro‘yxati va ularning muammolari oshkor etilmasligi shart.

Qonunchilikda psixologik yordamni bevosita yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatish mumkinligi belgilangan [1]. Bu imkoniyat chekka hududlarda yashovchi, salomatligi yoki oilaviy sharoiti sababli bevosita qabulga kela olmaydigan fuqarolar uchun ayniqsa muhim. Biroq masofaviy maslahat jarayonida ham ma’lumotlarni himoya qilish, suhbatni yozib olmaslik, murojaatchining shaxsiy hududini hurmat qilish va xavfsiz aloqa vositalaridan foydalanish talab etiladi.

Mahallada psixologik xizmatni tashkil etishda aholining xizmatga bo‘lgan munosabatini muntazam o‘rganish zarur. Murojaatlar soni xizmat samaradorligini to‘liq ifodalamaydi. Murojaatlar ko‘payishi ayrim holatlarda muammolarning ortganini emas, aholining psixologik yordamga nisbatan ishonchi va xabardorligi oshganini ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun xizmat natijasini baholashda fuqarolarning qoniqishi, yordam olish uchun kutish muddati, mutaxassisga o‘z vaqtida yo‘naltirilgan holatlar, psixologik muammoning kamayishi, oilaviy munosabatlarning yaxshilanishi va maxfiylikka rioya etilishi kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olish lozim.

Psixologning kasbiy faoliyati ham muntazam qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Ko‘p sonli murakkab murojaatlar bilan ishlash mutaxassisda emotsional zo‘riqish va kasbiy kuyishni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli mahalla hududlarida faoliyat yurituvchi psixologlar uchun superviziya, malaka oshirish va kasbiy tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish zarur. Superviziya murakkab vaziyatlarni professional jihatdan tahlil qilish, psixologning kasbiy xatolarini kamaytirish va yordam sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalla orqali psixologik xizmat ko‘rsatishning rivojlanishi aholi orasida psixologga murojaat qilish madaniyatining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yordam faqat ruhiy kasalligi bo‘lgan shaxslar uchun kerak, degan qarash xizmatdan foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Aslida psixologik maslahat hayotiy tanlov, oilaviy muloqot, ota-onalik mas’uliyati, yo‘qotish, migratsiya, kasbiy moslashuv, stress va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq ko‘plab vaziyatlarda foydali bo‘lishi mumkin. Mahalla doirasidagi ma’rifiy ishlar ushbu noto‘g‘ri tasavvurlarni kamaytirishga va aholining ruhiy salomatlikka mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Mahalla institutlari orqali aholiga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash, oilaviy va shaxslararo munosabatlardagi muammolarni erta aniqlash hamda tang vaziyatlarning oldini olish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Mahallaning aholiga hududiy va ijtimoiy jihatdan yaqinligi psixologik yordamdan foydalanishdagi ayrim to‘siqlarni kamaytiradi. Biroq ushbu imkoniyatdan samarali foydalanish mahalla vakillari va professional psixologning vazifalarini aniq chegaralashni talab etadi.

Mahalla xodimlari psixologik tashxis qo‘yishi yoki professional psixologik ta’sir usullarini qo‘llashi mumkin emas. Ularning asosiy vazifasi aholining ehtiyojlarini aniqlash, psixologik yordam haqida ishonchli ma’lumot berish, murojaatchini tinglash va uning roziligi asosida malakali mutaxassisga yo‘naltirishdan iborat. Bevosita psixologik maslahat va korreksion faoliyat tegishli ma’lumot va kasbiy vakolatga ega psixolog tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Mahallada psixologik xizmatning samarali faoliyat yuritishi uchun maxfiy maslahat o‘tkazishga mos sharoit yaratish, professional psixologlar bilan barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mahalla vakillarining boshlang‘ich psixologik savodxonligini oshirish hamda tibbiy, ijtimoiy, pedagogik va huquqiy xizmatlarga yo‘naltirish tartibini belgilash zarur. Ushbu jarayonda ixtiyoriylik, maxfiylik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, kasbiy vakolatlilik va zarar yetkazmaslik tamoyillari ustuvor bo‘lishi lozim.

Mahalla, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, sog‘liqni saqlash va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik aholining murakkab ehtiyojlariga yaxlit yondashish imkonini beradi. Bunday hamkorlik psixologik xizmatni alohida tashkilot faoliyati sifatida emas, balki insonning ruhiy, ijtimoiy va oilaviy farovonligini ta’minlashga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan jarayon sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-989-sonli “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-7196808.

2. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

3. Caplan G. Principles of Preventive Psychiatry. – New York: Basic Books, 1964. – 304 p.

4. World Health Organization. Guidance on Community Mental Health Services: Promoting Person-Centred and Rights-Based Approaches. – Geneva: WHO, 2021. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240025707.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF–82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6480342.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-319-sonli “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6624639.

7. World Health Organization. World Mental Health Report: Transforming Mental Health for All. – Geneva: World Health Organization, 2022.

8. Dadabaev T. Community life, memory and a changing nature of mahalla identity in Uzbekistan // Journal of Eurasian Studies. – 2013. – Vol. 4, Issue 2. – P. 181–196.